

Murojaatlar bilan ishlash bo‘limi 505 nafar fuqaro bilan telemuloqot o‘tkazdi

Jamg‘armaning Murojaatlar bo‘limi 4-8 sentyabr' kunlari imtiyozli yo‘llanma bilan davolanib, uyiga qaytgan 255 nafar bemor bilan tibbiy yordamni baholash, tibbiy yordam sifati va hajmi yuzasidan telemuloqot o‘tkazdi.

Qayd etish kerakki, Jamg‘arma joriy yilda 14 ta Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi, 11 ta Respublika darajasidagi, 41 ta hududiy va 23 ta nodavlat tibbiyat tashkiloti bilan 576 mlrd. so‘mlik shartnomalar imzolagan.

Bo‘lim xodimlari o‘tkazgan telemuloqot natijasida imtiyozli yo‘llanma bilan davolangan bemorlarning 2,7 foizi oziq-ovqat sifatidan, shifokor va hamshiralalar qarovidan hamda shifoxanada shifokorlarning davolash sifati yuzasidan e’tirozlarini bildirgan. Lekin, e’tirozlari yuzasidan Jamg‘armaga yozma murojaat qilishni istamagan.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefon(99 353 93 54, 94 353 93 54)lariga 250 nafar fuqarodan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan “sms” xabarnoma, jamg‘arma faoliyati hamda fuqarolarning shifoxonalar yuzasidan og‘zaki e’tirozli murojaatlardan iborat.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefonlariga va Jamg‘arma elektron manziliga hafta davomida fuqarolardan oltita og‘zaki e’tiroz va elektron yozma murojaat qabul qilingan.

Toshkent shahar Mirobod tumanida yashovchi fuqaro o‘z hududidagi poliklinika shifokor va hamshiralari qarovidan, Samarcand viloyati Qo‘srorabod tumanida yashovchi imtiyozga ega fuqaro imtiyozli yo‘llanma bilan Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitasiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi qabul qilmayotganligi, Andijon viloyati Shaxrixon tumanida yashovchi imtiyozga ega fuqaro imtiyozli yo‘llanma bilan Andijon tibbiyat instituti ko‘p tarmoqli klinikasida davolanish davrida davolash sifatidan shikoyat qilgan.

Jizzax viloyati Zarbdor tumanida yashovchi imtiyozga ega fuqaro imtiyozli yo‘llanma bilan Toshkent tibbiyat akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasida davolanish davrida shifokorlar qarovi hamda davolash sifatidan, Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanida yashovchi imtiyozga ega fuqaro imtiyozli yo‘llanma olishda muammolarga uchrayotganligi yuzasidan noroziligini bildirib, ishonch telefonlariga murojaat qilgan.

Yuqoridagi holatlar bo‘yicha Jamg‘armaning xududiy bo‘linma va bosh mutaxassislariga hamda tibbiyat muassasa rahbariyatiga fuqarolarning

ma'lumotlari telefon orqali berildi, og'zaki e'tirozli murojaatlar o'z vaqtida bartaraf qilindi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Andijon, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahrida yashovchi fuqarolardan Jamg'arma ishonch telefoniga kelib tushgan og'zaki murojaatlar xududiy bo'linma hamda bosh mutaxassislariga o'rghanish uchun yuborildi.

Davlat tibbiy sug'urtasi Matbuot xizmati